

LUG‘ATSHUNOSLIKNING BIR TARMOG‘I

Saidxonov Ma’murjon Muhammedovich

professor v.b., filologiya fanlari doktori

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muayyan ijodkor asarlari tili asosidagi lug‘atlar tuzish va uning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Muallif lug‘atshunosligi, yozuvchi leksikografiyasi, lingvomadaniy, etnolisoniy, lingvopsixologik.

Аннотация. В данной статье представлена информация о создании словарей на основе языка произведений отдельных художников и ее значении. Высказаны мнения об “Энциклопедии Захириддина Мухаммада Бабура”.

Ключевые слова. Авторская лексикография, писательская лексикография, лингвокультурологическая, этнолингвистическая, лингвopsихологическая.

Annotation. His article provides information on the importance of creating dictionaries based on the language of the works of a particular artist. Opinions about "Encyclopedia of Zahiruddin Muhammad Babur" are expressed.

Keywords: Author's lexicology, writer's lexicography, linguistic, cultural, ethnolinguistic, linguistic and psychological.

Lug‘at va lug‘atshunoslik masalasi nafaqat tilshunoslik, balki bir qator fanlarning o‘rganish maydoniga kirishi bor gap. Zero, muayyan kasb, soha, fan yo‘nalishlaridan tortib, keng qamrovdagi izohli, qomusiy va boshqa lug‘atlar borki, unda olamning lisoniy manzarasi to‘la namoyon bo‘ladi. Keyingi yillarda lug‘at va lug‘atshunoslik masalasi ham amaliy, ham nazariy jihatdan yangi shakl va mazmun bilan boyib bormoqda. Yangi-yangi lug‘at turlarining yaratilishi, albatta, muayyan iste’molni qondirish, inson imkoniyatlarining yangi qirralarini ochib berish evaziga hosil bo‘lmoqda. Ayniqsa, mustaqillikdan so‘ng tilni ilmiy tadqiq etishga keng e’tibor qaratilishi, davlatlararo munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi, har sohada hamkorlik munosabatlarning o‘rnatilishi amaliy tilshunoslikning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Leksikografiyaning o‘ziga xos jihatini Yu.D.Apresyan shunday ta’riflaydi: "So‘z keng ma’noda filologiya va madaniyatning sintezidan iborat ekan, har qanday xalq madaniyatining muhim qismi uning tili orqali namoyon bo‘ladi va til o‘zining barcha boyliklarini, birinchi navbatda, lug‘atda mustahkamlaydi" [1,29]. Leksikografiya tilning boyligini namoyish etadi, olamning lisoniy manzarasini

soʻzlar va frazemalar orqali moddiylashtiradi. Leksikografiya mavjud lisoniy birliklarni turli jihatlardan taʼriflab, tavsiflab beradi, boshqa tildagi muqobilini aniqlaydi.

Mashhur tilshunos J.B. Илєпба: “Garchi insoniyat lugʻat tuzishning har xil turlarini qadimdan qoʻllab kelsa-da, lugʻat tuzishning umumiy leksikografik nazariyasi hozirga qadar mavjud emas”, – deb yozadi va mualliflar lugʻat tuzishga muntazam ravishda ijodiy yondashishlarini, yangi lugʻatlar turlarini yaratishlarini taʼkidlab oʻtadi. [2, 37].

Darhaqiqat, har bir tilning tarixiga eʼtibor qaratilsa, oʻsha tilda ilk rivojlanish davrida turli toifadagi lugʻatlar tuzilgani lugʻatshunoslik asosiy ehtiyojlardan ekaniga guvoh boʻlamiz. Eʼtiborli jihati shundaki, turkiyshunoslikdagi bizgacha saqlanib qolgan eng qadimiy manba ham lugʻat sanaladi. Oʻrta asrlarda Sharqda paydo boʻlgan Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari nafaqat turkiy tilning, balki Sharqning butun turkiyzabon aholisining leksikografik asari ekani bilan eʼtiborga loyiq. Ushbu lugʻatning oʻziga xos jihati shundan iboratki, muallif keltirgan soʻz va iboralar xalqning jonli muloqotidan, ogʻzaki ijod namunalari olingan va izohlangan. Bu esa “Devonu lugʻotit turk” da saylab olingan soʻzlar va iboralarning muallifi turkiy xalqlar ekanidan dalolat beradi. Qashgʻar dunyo ahamiyatiga molik savdo markazi boʻlmish Buyuk ipak yoʻlida joylashgani va u yer turkiy xalqlarning kesishuv nuqtasi boʻlgani sababli, muallif 29 turkiy urugʻlar yashash joylarida boʻlib, 6800 dan ortiq turkiy soʻzlarni aniqlaydi, izohlaydi, xalq ogʻzidan yozib olingan misollar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari orqali ularning maʼnolarini ifoda etadi. Shu bilan birga, lugʻatda 242 sheʼriy folklor namunalari, 262 maqol, matal va hikmatlar berilgan boʻlib, asar tarixiy, etnografik, etimologik xarakter kasb etishidan dalolat beradi. Bu esa “Devonu lugʻotit turk”ni ilk mualliflik lugʻatshunosligi sirasiga kiritishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Muayyan muallif asarlari asosida yaratilgan lugʻatlar muallif lugʻatshunosligi sirasiga kiradi.

Muallif leksikografiyasi soʻzligining obʼyekti alohida muallif yoki mualliflar guruhlarini turli jihatdan tadqiq etish, tahlil qilish, izohini aniqlash yoʻnida boshqa tildagi muqobilini topish asosiga quriladi. Ayrim manbalarda “yozuvchi leksikografiyasi” deb ham ataladi.

Muallif leksikografiyasi lugʻatlarning murakkab turlaridan sanalib, uning asosi ikki jihatga bogʻliq boʻladi: birinchisi, muayyan ijodkorning (muallifning) asarlari va, ikkinchisi, ishlatilgan til birliklarining maʼlum nuqtai nazardan lugʻatini yaratish. Bu oʻz-oʻzidan har ikki jihatdan yaratilajak lugʻatni chegaralaydi.

Har qanday til birliklarining ishlatilish maydoni badiiy matnlar sanalib, ular muayyan ijodkorlarning ijod mahsulida namoyon boʻladi. Yozuvchi va shoirlar

asarlaridagi til birliklarining turli jihatlardan tahlili asosida yaratilgan bunday lugʻatlarda soʻzlik maʼlum ijodkor asarlari maydoni doirasida boʻladi.

Muayyan ijodkor asarlari boʻyicha lugʻat tuzish qadimgi davrlarga borib taqalib, u alohida mualliflarning asarlari asosida yaratiladi. Albatta, asarlari soʻzligi asosida lugʻat tuzilajak ijodkor oʻsha davr adabiyotida oʻz mavqeiga, oʻz oʻrniga ega boʻlib, uning asarlari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yuqori pogʻonada boʻlishi, ijtimoiy munosabatlarni ifoda etishi, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi, umuminsoniy qadriyatlarni targʻib etishi maqsadga muvofiq sanalgan, shu bilan birga, asarlarida til birliklaridan foydalanishi, qoʻllanilgan leksik birliklarning maʼno silsilasi, semantik jihatlari, leksemalarning taʼsirchanlik darajasi, qisqasi, lisoniy tomoni boshqalar uchun oʻrnak boʻlarli va tadqiq etishga asosli boʻlishi kerak.

Soʻz mulkingning sultoni Alisher Navoiy asarlariga qiziqish natijasida Sulton Husayn Boyqaroning shaxsan buyrugʻi bilan Toli Imoni Hiraviy 1505-yilda “Badoye ul-lugʻat” asarini tuzadi. Ushbu lugʻat Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan sof turkiy, shuningdek, moʻgʻulcha va juda oz miqdorda arabcha soʻzlarning forscha-tojikcha izohidan iborat boʻlib, ushbu lugʻat, bir tomondan, mualliflik leksikografiyasi sanalsa, ikkinchi tomondan, ikki tilli izohli lugʻat sirasiga kiradi. Ushbu lugʻatdan jami 854 soʻz oʻrin olgan.

Ushbu lugʻatning tuzilishiga bir qancha ehtiyojij sabablar bor edi: Alisher Navoiy oʻzining samarali va sermazmun ijodi bilan oʻz davrida peshqadam shoirlardan sanalgani, asarlarining hajman koʻp va rang-barang ekanligi, ijodida umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy, diniy, urfiy, tasavvufiy va real hayotiy qarashlarni qalamga olgani, turkiy til zaxirasida mavjud boʻlgan soʻzlardan nafaqat unumli foydalangan, balki ularga turli maʼnoviy vazifalar yuklagani, shuningdek, ona tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi soʻzlar, birikmalar, iboralar yaratgani va ular orqali lugʻat fondining boyishiga hissa qoʻshgani, shu bilan birga, Alisher Navoiy turkiy va forsiyda ijod qilgani (zullisonayn ijodkor boʻlgani), arab tilini ham mukammal bilgani sababli asarlarida arabiy va forsiy leksik qatlamga xos soʻzlardan foydalangan va ularni izohlash, tushuntirish zarurligi uchun ham mutafakkir asarlari asosida lugʻat yaratishga ehtiyoj tugʻilgan.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nazm va nasrda bitilgan 32dan ortiq badiiy, tarixiy, ilmiy, didaktik asarlarida turkiy tilning imkoniyatlaridan foydalangan holda 26 mingdan ortiq soʻz, soʻz birikmalari, iboralar va boshqa soʻz qoʻshilmalarini qoʻllab, tilimizning boy, serqirra, serjilo ekanini isbotladi, bu til bilan har qanday fikrni, tushunchani ifodalash mumkin ekaniga hammani ishontirdi.

Alisher Navoiy asarlari leksik birliklarining leksikografik tadqiqiga bagʻishlangan “Abushqa” lugʻati 2054 soʻzni qamrab olgan boʻlib, soʻzlarning izohi, maʼnolari misollar orqali aniqlangan. Lugʻat soʻzligining markazida Navoiy asarlari

leksikasi turishi ushbu lug‘atning ijodkor shaxs lug‘atshunosligi maqomiga to‘g‘ri keladi.

«Abushqa»ni dastavval vengriyalik sharqshunos G.Vamberi Budapeshtda venger tilida (1862), keyin rus sharqshunosi V.Velyaminov-Zernov «Al-lug‘at un-Navoiy val-istishhodot ilchig‘atoiya» («Chig‘atoy tilidan shohidlik keltiruvchi Navoiy lug‘ati») nomi bilan nashr ettirgan (1868).

Shaxs lug‘atchiligi tarixi an‘analarining XVII asrdagi taraqqiyoti Mirza Muhammad Mahdiyxon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u 1759-yilda Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan “Sangloh” lug‘atini yozib tugatadi...

Bugunga qadar Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha 100 dan ortiq turli shakl va mazmunda lug‘atlar yaratilgan bo‘lib, ularda ijodkorning lisoniy imkoniyatlarining amaliy ifodasi turli jihatlardan tadqiq etilgan va shu asnodda lug‘atlar tuzilgan. Bu jihatdan 1972-yilda nashrdan chiqqan “Navoiy asarlari lug‘ati” [6,], 1983-1985-yillarda chop etilgan 4 jildli “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” [7], “Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at”. 1-, 2-jild. [8.], B. Bafoyevning Navoiy asarlari leksikasi [9.] asarlari e‘tiborga loyiq.

Ayni paytda muallif leksikografiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zero, muayyan ijodkorlar asarlari tilini o‘rganish, ularning lisoniy imkoniyatdan foydalanishlari, lingvistik ixtiro va yangiliklari, uslubiy va ifoda usullari, lingvomadaniy, etnolisoniy, lingvopsixologik yondashuvlar tilimizning ravnaqida alohida olingan mualliflarning lisoniy imkoniyatlariga baho beradi.

Muallif leksikografiyasi quyidagi jihatlarni e‘tiborga olishi mumkin: a) ma‘lum ijodkorning alohida olingan asarining til xususiyatlarini; b) ijodkorning bir nechta asarining til xususiyatlarini; d) ijodkorning barcha asarlarining til xususiyatlarini; e) bir necha ijodkorlarning asarlari til xususiyatlarini (masalan, jadid adabiyoti namoyandalarining); f) ma‘lum davr ijodkorlari asarlari til xususiyatlarini e‘tiborga olib, turli tipdagi lug‘atlarni tayyorlash mumkin.

Muallif leksikografiyasi olamning lisoniy manzarasini muayyan ijodkorning tafakkur prizmasidan o‘tib saralangan leksemalarining lisoniy tadqiqi bo‘lib, unda ishlatilgan leksik birliklarning izohi, ma‘nosi, semik, morfologik, sintaktik, uslubiy va boshqa jihatlardan tahlili, statistikasi ifoda etiladi. Yoinki ularning boshqa tildagi (tillardagi) muqobili berilib, matniy ma‘no nozikliklari tahlil qilinadi.

Mualliflik lug‘atlari jumlasiga Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi ta‘rifiga bag‘ishlangan lingvistik va qomusiy lug‘atlarni ham kiritish mumkin. “Bobur ensiklopediyasi”da Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga tuzilgan lug‘atlar 8 ta ekani ko‘rsatib o‘tilgan. [10, 112] H. Nazarovaning “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug‘at” [3] kitobida 2789 ta so‘z va so‘z birikmalari izohlangan. F.Is‘hoqovning “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at” [Is‘hoqov] kitobida 3 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalarining izohi berilgan.

Z.Teshaboyevaning “Boburnoma”dagi frazeologik birliklar va paremiyalarning inglizcha tarjimalari lug‘ati” [5.] tarjima lug‘atlar sirasiga kirsada, unda muayyan ijodkor asarlari doirasida ekani ijodkor lug‘atshunosligi qatorida tadqiq etiladi.

Qomusiy lug‘atlarning tarixiy shaxs ensiklopediyasi sirasiga kiruvchi Bobur ensiklopediyasi (Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент: “Sharq” matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taхририяти. 2017. – B. 687) mualliflik qomusiy lug‘ati sanalib, uning chop etilishi jahon boburshunosligida katta voqea sifatida e’tirof etildi.

Lug‘atning birinchi nashri 2014-yilda chop etilgan bo‘lsa, 2017-yilda tuzatilgan, yangi maqolotlar bilan boyitilgan, yangi topilmalar bilan to‘yintirilgan va tahrirdan o‘tkazilgan holda nashrdan chiqarildi. Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondining mamlakatlardagi hududiy bo‘limlari, boburshunos olimlar sa‘yi harakatlari bilan uzluksiz olib borilayotgan izlanishlar natijasida aniqlangan yangi ma‘lumotlar asosida hozirda Qomusning uchinchi nashri ustida ish olib borilmoqda.

“Bobur ensiklopediyasi”ning markazida Bobur shaxsi turadi va barcha maqolalar (so‘zliklar) Bobur semantik maydoni doirasida tahlil qilinadi. Ya‘nikim, Bobur shaxsiyati bilan aloqador insonlar: oilasi, qarindosh-urug‘lari, ko‘rgan-uchrashgan kishilar, uning bilan birga bo‘lgan odamlar, avlod va ajdodlari, u tanigan yoki asarlarida qalamga olingan tarixiy shaxslar va h. k. Boburning “Boburnoma” asari memuar asar sanalib, u avtobiografik janr jumlasiga kirgani sababli, bu kabi asarlarda shaxs-personajlar ko‘p bo‘ladi. Shu boisdan shaxslar, ularning shajarasi, sumbat va siyrati, fazilat va xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar orqali asardagi personaj haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lamiz.

Boburga berilgan jahongashta sifati taqdir taqozosi bo‘lib, mamlakatdagi ichki nizolar, davlat talashish, o‘zaro kelishmovchiliklar va ularning oqibatida shoh va shoirning bosh olib ketishi natijasida uning qator maskanlarda bo‘lishini taqozo etgan. Qomusiy lug‘atda Bobur bo‘lgan joylar toponimik obuyekt sifatida atroflicha ta‘riflangan, u ko‘rgan narsa-voqealar, hayvonot va o‘simlik dunyosi... lug‘at maqolalarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, Bobur ijodkor sifatida shoiru nosirlar, tarixchiyu tarjimonlar, rassomu san‘at ahli bilan, ularning asarlari bilan muntazam tanishib borgani sababli ijod haqidagi maqolotlarga lug‘atda keng o‘rin berilgan.

Qomusiy lug‘atlar ma‘lum soha (shaxs) haqidagi keng qamrovdagi lug‘atlarning alohida turi sanaladi. E’tiborli jihati Boburning o‘zi ham shaxs sifatida qiziqish va faoliyat jabhasi ko‘p qirrali bo‘lgan tarixiy shaxs sanaladi: shoir, memuarchi, shoh, sarkarda, tabiatshunos, adabiyotshunos, tilshunos, tarjimon, tarixchi, etnograf, geodezist va b. Bu jihat ensiklopediya maqolalarining ham mazmunan, ham shaklan rang-barang bo‘lishiga, lug‘atga qiziqishning ortishiga sabab bo‘lgan. Bu esa lug‘atga “universal ensiklopediya tabiatini kasb etadi” [10, 6].

Ushbu lug‘atning yaratilishi o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi, qolaversa, o‘zbek madaniyatida katta hodisa sifatida e’tirof etilib, muallif leksikografiyasining tarixiy shaxs qomusiy lug‘atchiligi bobidagi mukammal, fundamental asar sifatida e’tiborga loyiq.

Adabiyotlar:

1. Апресян Ю. Д. Языки русской культуры. М. 1993, 29-бет.
2. Щерба Л. В. Опыт общей теории лексикографии / Избранные работы по языкознанию и фонетике. (т. 1.). Ленинград, 1958.)
3. Назарова Х. Заҳириддин Муҳаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. Тошкент: Фан. 1972.
4. Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат”Андижон: Андижон нашриёт-матбаа. 2008.
5. Тешабоева З. “Бобурнома”даги фразеологик бирликлар ва паремияларнинг инглизча таржималари луғати. Тошкент: Тафаккур. 2016.
6. Навоий асарлари луғати. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1972.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдли. Тошкент: Фан. 1983. -198.
8. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-, 2-жилд. Тошкент: Шарқ. 2016.
9. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. Тошкент, 1983.
10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент: “Sharq” матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2017. 687 бет.